

## SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI

**Haqberdiyev Bekzod Uktamovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Masofaviy va 2-oliy ta'lim fakulteti dekani, PhD

[ORCID: 0009-0003-4580-4520](https://orcid.org/0009-0003-4580-4520)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar, yuzaga keluvchi risklar, ularni baholash usullari, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash ko'rsatkichlari hamda sug'urta riskini va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini matematik tahlil qilish usullari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** sug'urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik, risklar, risklarni baholash usullari, matematik modellashtirish, sug'urta polisi, sug'urta da'volari.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются факторы, влияющие на финансовую устойчивость страховых компаний, возникающие риски, методы их оценки, показатели оценки финансовой устойчивости страховых компаний, а также методы математического анализа страховых рисков и финансовой устойчивости страховых компаний.

**Ключевые слова:** страховые компании, финансовая устойчивость, риски, методы оценки рисков, математическое моделирование, страховой полис, страховые претензии.

### **Abstract**

This article discusses the factors affecting the financial stability of insurance companies, the risks that arise, methods for assessing them, indicators for assessing the financial stability of insurance companies, and methods for mathematically analyzing insurance risk and the financial stability of insurance companies.

**Keywords:** insurance companies, financial stability, risks, risk assessment methods, mathematical modeling, insurance policy, insurance claims

### **KIRISH**

Jahon iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi inqirozlarning salbiy oqibatlarini yumshatishda sug'urta kompaniyalarining zararini qoplash bo'yicha moliyaviy mexanizmlarni baholash murakkab jarayondir. Sug'urta bozorining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shart bozor professional ishtirokchilariga bo'lgan mijozlarning ishonch darajasi hisoblanadi. Bozorda faoliyat yuritayotgan har bir sug'urta kompaniyasi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini, ya'ni moliyaviy barqarorligini ta'minlashi zarur. Bu esa sug'urta funksiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlari moliyaviy holatining hozirgi darajasi ularning

raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishning yangi shakllari hamda usullarini izlashni talab qiladi. Shu sababli sug'urta kompaniyasining moliyaviy holatini yanada samarali baholash va moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish uchun sug'urta bozorida risklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurati yaqqol namoyon bo'ldi.

Risklarning namoyon bo'lish shakllarining xilma-xilligi sababli ularning ta'siri ham turlicha bo'lib, sug'urta kompaniyasining moliyaviy siyosatini chuqur tahlil qilish va iqtisodiy hamda matematik asoslash talab qilinadi. Iqtisodiy va matematik usullardan foydalanish, birinchi navbatda, moliyaviy barqarorlikning asosiy xususiyatlarini yanada aniq va ishonchli baholash imkonini beradi, shuningdek, ularning ta'sir darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Moliya tizimida sug'urta kompaniyalari moliyaviy vositachilar sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli, sug'urta kompaniyalari moliya bozorida moliyaviy resurslar akkumulyatori va mos ravishda yirik investitsiyalar manbai — investor sifatida ham namoyon bo'lib, tijorat banklari va investitsiya fondlari kabi institutsional investor bo'lib, moliya bozorida samarali faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlarga ega hisoblanadi. [1].

Sangyong Hana (2018) o'z ilmiy ishlarida AQSHda sug'urta zaxiralarini joylashtirish amaliyotini tahlil qilgan. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida sug'urta zaxiralarini joylashtirishda konservativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Sababi, investitsiya qilinayotgan sug'urta rezervlari shaffoflik tamoyillariga amal qilishi zarur. Aks holda, nazorat organlari ushbu investitsiyalarni aksiyadorlar va sug'urtalanuvchilar uchun zararli deb baholashi ehtimoli mavjud. [2].

Sug'urta kompaniyasining bankrot bo'lish ehtimolini aniqlash muhim vazifalardan biridir. Risklarning kompaniya faoliyatiga ta'sirini aniqlash, sug'urta mukofotining optimal (ya'ni oqilona, adolatli) miqdorini hisoblash imkonini beradi. Aktuar modellar o'rtasidagi farq sug'urta to'lovlarini taqsimlash (va ularning hajmi) hamda modelni yaratish uchun asos sifatida foydalaniladigan to'lovlar orasidagi vaqt oralig'i haqidagi taxminlarda yotadi. To'lovlar bir xil yoki ixtiyoriy ko'rinishda taqsimlanadi. [3].

To'lovlar orasidagi intervallar turli eksponensial taqsimotlarga ega bo'lishi bilan birga, to'lovlar ketma-ketligi Puasson jarayoni yordamida ham tavsiflanadi. Ba'zi modellar qo'shimcha usullarni, masalan, ta'sischilarga (ishtirokchilarga) dividendlar to'lashni ham hisobga olish imkoniyatini taqdim etadi. [4].

Moliyaviy barqarorlikni bunday ko'rib chiqish ushbu masalaning ko'p qirrali tabiati nuqtai nazaridan to'liq bo'lmasa-da, sug'urta kompaniyasi menejerlari uchun qaror qabul qilish jarayonida asos bo'ladigan oqilona baholarni olishga imkon beruvchi rasmiy iqtisodiy va matematik modellardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ishonchli va sifatli baholashni taʼminlash nihoyatda muhim [5]. Biroq, bu masala ancha murakkab boʻlib, birinchi navbatda, qoʻllanilayotgan iqtisodiy va matematik modellar moliyaviy barqarorlik darajasiga taʼsir qiluvchi barcha omillarni qamrab ololmasligi bilan bogʻliq.

Shuningdek, ularning natijaviy koʻrsatkichga taʼsirini analitik bogʻliqliklar yordamida ifodalash qiyinlashadi. Shu sababli moliyaviy barqarorlik darajasini baholash uchun taxminiy yechim usullaridan foydalanish lozim. Bunga qaramay, iqtisodiy va matematik usullardan foydalanish moliyaviy barqarorlikni boshqarish boʻyicha qarorlarni (boshlangʻich kapital miqdori, toʻlov qobiliyati marjasi, tarif va qayta sugʻurta siyosatini optimallashtirish qarorlari) qabul qilishni asoslashda muhim rol oʻynaydi. [6].

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor sharoitidagi har qanday tadbirkorlik faoliyatida risklar yuzaga kelishi muqarrar boʻlib, hozirgi sharoitda nafaqat tabiiy ofatlar, balki texnogen, siyosiy va ijtimoiy omillar ham xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega. Shu sababli, maksimal foyda olish bilan bir qatorda, xavflarni minimallashtirish vazifasi ham dolzarbdir. Bu esa samarali sugʻurta himoyasiga boʻlgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bunday himoya sugʻurta kompaniyalari tomonidan taʼminlanadi. Shu bilan birga, sugʻurta kompaniyalari risklarni boshqarishning ham subyekt, ham obyekt boʻlib, faoliyatining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ikki turdagi risklarga duchor boʻladi:

- Iqtisodiy faoliyat obyekt sifatida.
- Sugʻurtalanuvchilardan qabul qilingan risklar. [4].

Sugʻurta biznesida risklarni boshqarishning asosiy maqsadi sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini va uning bozordagi raqobatbardoshligini taʼminlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik omillari kompaniyaning holatiga hamda moliyaviy barqarorlik darajasiga taʼsir koʻrsatuvchi hodisalar hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik darajasi tashqi va ichki omillar bilan belgilanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Siyosat va iqtisodiyot hodisalari.
- Huquqiy va soliq sohasining taʼsiri.
- Korxonada boshqaruvni tashkil etish.

Har qanday omillar (risk muhitining ayrim tarkibiy qismlarining taʼsiriga qarab) hukmron boʻlib, sugʻurta kompaniyasining moliyaviy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi ehtimoli mavjud. Moliyaviy barqarorlikning pasayishiga yoʻl qoʻymaslik uchun qaror qabul qilishda tashqi muhit omillarini hisobga olish kerak. Biroq, ularga taʼsir qilish imkoniyati sugʻurta kompaniyalari ixtiyorida boʻlmaydi. Shuning uchun asosiy eʼtibor

odatda tashkilotning ichki muhiti omillariga qaratiladi, chunki ular moliyaviy menejer tomonidan qisman tartibga solinadi va boshqariladi.

Moliyaviy barqarorlikka omillarning ta'siri sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorlik darajasini (uning boshqa sifatga o'tishigacha) va boshqa sug'urtalovchilar bilan taqqoslaganda dinamik baholash uchun ishlatiladigan ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bozor subyekting moliyaviy barqarorligiga moliyaviy resurslarning miqdoriy o'zgarishlari ta'sir ko'rsatib, nafaqat moliyaviy resurslar sifatini, balki moliyaviy barqarorlikni ham o'zgartiradi.

Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari ikki tomondan turli risklarga duchor bo'lishini hisobga olish kerak:

- Sug'urta, qo'shma sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha o'zlariga o'tkaziladigan boshqa shaxslarning risklarini zimmasiga olishlari.
- Investitsiya va boshqa moliyaviy faoliyat jarayonida sug'urtalovchi investitsiya qilingan mablag'larning qaytarilmasligi yoki foydani yo'qotishi bilan bog'liq o'z moliyaviy tavakkalchiligiga duch keladi. [4].

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun odatda nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular orasiga quyidagilar kiradi: to'lov qobiliyati, likvidlik, moliyaviy samaradorlik, tadbirkorlik faoliyati, investitsion jozibadorligi va investitsiya portfelining sifati, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, sug'urta portfelining zarar koeffitsiyenti hamda qayta sug'urtalash.

Sug'urtalovchining moliyaviy risklarini tahlil qilishning keng tarqalgan usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: diskont stavkasini tuzatish usuli, ishonchli ekvivalentlar usuli, samaradorlik mezonlarining sezgirlik tahlili, ehtimollik taqsimotini tahlil qilish, "maqsadlar daraxti" usuli, ssenariy usuli va simulyatsiya modellashtirish. Ushbu usullarning aksariyati sug'urta zaxiralari va sug'urta kompaniyasining o'z mablag'larini joylashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni baholashda qo'llaniladi.

Shunga qaramay, sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini pasaytirish riskini baholash uchun oddiy, ammo amaliyotda kam qo'llaniladigan yondashuvlar taklif etiladi. Sug'urta riskini va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini matematik tahlil qilish usullari individual va jamoaviy risk nazariyasiga asoslanadi. Ular vaqt omilining ta'sirini hisobga olishni talab qiladigan qisqa va uzoq muddatli sug'urta turlari uchun qo'llaniladi. Individual risk modeli sug'urta uchun qabul qilingan har bir individual riskning sug'urta to'lovlarining umumiy hajmiga ta'sirini tahlil qilishga asoslanadi. Matematik nuqtai nazardan, har bir risk uchun sug'urta to'lovlarining umumiy miqdori nol qiymatni yoki haqiqiy to'lovlarga mos keladigan qiymatni qabul qiladigan tasodifiy o'zgaruvchilar yig'indisi sifatida qaraladi. Bu holda

sugʻurta portfelini koʻrib chiqiladi, sugʻurta mukofotlari portfelni shakllantirish vaqtida undiriladi, barcha sugʻurta shartnomalarining amal qilish muddati bir xillikda taʼminlanadi va bu davrda sugʻurta hodisalari yuzaga kelishi natijasida sugʻurta toʻlovlarini (daʼvolarini) keltirib chiqaradi.

Individual risk modeli sugʻurta kompaniyasi faoliyatining eng oddiy modeli boʻlib, bankrotlik ehtimolini hisoblash uchun moʻljallangan. U quyidagi soddalashtiruvchi taxminlarga asoslanadi:

- Qatʼiy, nisbatan qisqa vaqt davri tahlil qilinadi (inflyatsiyani va aktivlarni investitsiyalashdan olingan daromadlarni eʼtiborsiz qoldirish uchun), odatda bir yil.
- Sugʻurta shartnomalari soni doimo bir xil belgilab olinadi.
- Mukofot koʻrib chiqilayotgan davr boshida toʻliq toʻlanadi.
- Har bir individual sugʻurta shartnomasiga rioya qilinadi va u bilan bogʻliq boʻlgan  $X$  individual zararlarning statistik xususiyatlari maʼlum boʻladi. Zaxiraning yetarliligi oʻrganilayotgan davr mobaynida yigʻilgan mablagʻlarning umumiy toʻlovlarni qoplash uchun yetarli boʻlish ehtimoli yordamida baholanadi. Bundan tashqari, mavjud maʼlumotlarga qarab, ushbu baholash taqsimot funksiyasi turiga yoki Chebishev tengsizligi asosiga tayangan holda amalga oshiriladi. [7].

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, bir qator hollarda bunday tasodifiy oʻzgaruvchilarning taqsimlanish parametrlarini har bir alohida sugʻurta tavakkalchiligi uchun, ayniqsa, mulkni sugʻurtalashda baholash osonroq boʻladi. Umuman olganda, sugʻurta portfelining tavakkalchiligini majburiyatlarning tasodifiy qiymatini olingan mukofot va zaxiralar bilan taqqoslash yoʻli bilan ham, sugʻurta kompaniyasining daromadlari (qabul qilingan mukofotlar)ning xarajatlar (majburiyatlar)dan diskontlangan oshib ketishining tasodifiy qiymatini tahlil qilish orqali ham baholanadi.

Kollektiv risk nazariyasi sugʻurta toʻlovlarining umumiy hajmini belgilovchi sugʻurta uchun qabul qilingan barcha risklarni hisobga olishni talab etadi. Matematik nuqtai nazardan, har bir risk uchun sugʻurta toʻlovlarining umumiy miqdori haqiqiy toʻlovlarga mos keladigan tasodifiy oʻzgaruvchilar yigʻindisi sifatida qaraladi. Bunday holda, statistik va dinamik modellar oʻrtasidagi farq shundaki, dinamik modellar sugʻurta kompaniyasining yigʻimlari va toʻlovlarining vaqtga bogʻliqligini (xavf dinamikasini) hisobga oladi.

Odatda, sugʻurta kompaniyasining moliyaviy holatining statistik modeli quyidagi tenglik shaklida yoziladi [8]:  $Q_1 = u + D - X, (1)$

bu yerda:

$Q_1$  – koʻrib chiqilayotgan davr oxiridagi sugʻurta fondi;

$u$  — sugʻurta kompaniyasining boshlangʻich kapitali (turli manbalarda sugʻurta kompaniyasining dastlabki zaxirasi deb ham yuritiladi);

$D = d \cdot N$ , bu yerda  $d$  — bitta sugʻurtalovchi tomonidan kompaniyaga toʻlangan sugʻurta mukofoti, agar sugʻurta mukofoti miqdori barcha sugʻurta shartnomalari boʻyicha teng boʻlsa yoki umumiy holatda:

$$D = \sum_{i=1}^N d_i$$

Sugʻurta shartnomalari boʻyicha toʻlovlarning umumiy miqdori quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \sum_{i=1}^N * X_i \quad (2)$$

Odatda, individual risk modelida  $X_1, \dots, X_N$  tasodifiy oʻzgaruvchilar mustaqil (yaʼni, bir vaqtning oʻzida bir nechta shartnomalar boʻyicha sugʻurta hodisalari sodir boʻlganda hodisalar chiqarib tashlanadi), manfiy boʻlmagan va chegaralangan, bundan tashqari, barcha sugʻurta egalari teng taqsimlangan deb taxmin qilinadi. Sugʻurta hodisalari barcha shartnomalar boʻyicha sodir boʻlmaganligi sababli,  $X_1, \dots, X_N$  tasodifiy oʻzgaruvchilarning baʼzilarida  $X_i$  i shartnoma boʻyicha yoʻqotishlar nolga teng boʻladi.

Sugʻurta kompaniyasining moliyaviy holatining dinamik modeli (1) ga oʻxshash tenglik shaklida topiladi [9]:

$$Q_2 = u + \Pi(t) - \sum_{i=1}^{N(t)} X_i \quad (3)$$

bu yerda  $\Pi(t)$  —  $t > 0$  vaqtida olingan mukofot summasi. Yoki, aks holda,

$$Q_2 = u + W(t) = u + c * t - \sum_{i=1}^{N(t)} X_i \quad (4)$$

Bu yerda  $k(t)$  — texnik foyda sifatida aniqlanadigan daromadning xarajatlardan oshib ketishining tasodifiy oʻzgaruvchisi;  $N(t)$  —  $t$  vaqtga kelib sodir boʻlgan sugʻurta hodisalari sonining tasodifiy jarayoni;  $t_0 = 0 \leq t_1 \leq \dots$ , tasodifiy oʻzgaruvchilar boʻyicha individual daʼvolarning paydo boʻlish momentlarini tavsiflovchi kamaymaydigan ketma-ketlik;  $T_n = t_n - t_{n-1}$ ,  $n \geq 0$  — daʼvolarning yuzaga kelishi orasidagi vaqt;  $t_0$  vaqti boʻyicha berilgan daʼvolarning umumiy soni  $N(t) = \sup\{n: t_n \leq t\}$  boʻladi.  $N(t)$  tasodifiy miqdorlar bilan  $\{N(t) = n\} = t_n \leq t \leq t_{n+1}$  ketma-ketligi oʻrtasida bogʻliqlik mavjud;  $C$  — har qanday vaqtda barcha shartnomalar boʻyicha olingan risk mukofotining darajasi;  $X_i(t)$  -  $t$  vaqtdan oldin sodir boʻlgan  $i$ -sugʻurta hodisasi uchun zararining tasodifiy miqdori.  $N(t) = 0$  boʻlganda  $X(t) =$ boʻlishi aniq:

$$W(t) = c * t - \sum_{i=1}^{N(t)} X_i \quad (5)$$

Iqtisodiy va matematik tadqiqotlardagi tasodifiy jarayon risk jarayoni deb ataladi. Riskning an'anaviy o'lchovi va sug'urtada hodisasining yuzaga kelishi sug'urta ehtimoli hisoblanadi. Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligining statik modeli uchun, tenglikni (1) hisobga olgan holda, ko'rsatilgan ehtimollik — ya'ni, to'lovlarning umumiy miqdori kompaniya aktivlaridan oshib ketish ehtimoli — quyidagicha aniqlanadi:

$$\Psi = P \left\{ \sum_{i=1}^{N(t)} X_i u - n * d \geq 0 \right\} \quad (6)$$

Sug'urtalovchi barqarorligining dinamik modeli uchun sug'urta ehtimoli quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi(u) = P[\exists t_0 < \infty : t_0 = \min\{t : u + W(t) < 0\}], \quad (7)$$

ya'ni cheksiz vaqt oralig'ida mavjud mablag'lar sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun yetarli bo'lmasligi  $[0, T]$

$$\varphi(u, T) = P[\exists t_0 : 0 \leq t_0 \leq T, t_0 = \min\{t : u + W(t) < 0\}],$$


Sug'urtalovchining cheklangan vaqt oralig'ida bankrot bo'lish ehtimolini baholash amaliyotga ko'proq mos keladi, cheksiz vaqt oralig'ida esa analitik baholash va natija olish osonroq.

Talablar (da'volar) sonini aniqlaydigan  $N(t)$  qiymatlariga kelsak, quyidagilar taxmin qilinadi:

- 1)  $N(t) = 0$ ;
- 2)  $N(t) \in \{0, 1, 2, \dots\}$ ;
- 3)  $N(t) < N(t + h)$ .

Shunday qilib,  $N(t + h) - N(t)$  qiymati vaqt oralig'ida  $(t, t + h)$  olingan da'volar sonini aniqlaydi.

Sugʻurta polisi egalari tomonidan daʼvo arizalarini topshirish uchun grafik jihatdan soddalashtirilgan vaqt jarayoni 1-rasmda koʻrsatilgan.



**1-rasm. Sugʻurta polisi egalari tomonidan daʼvolarni topshirish jarayoni<sup>1</sup>**

Odatda sakrashlar 1 magnitudali deb taxmin qilinadi va shuning uchun bir vaqtning oʻzida bir nechta daʼvolar berilishi ehtimoli istisno qilinadi.  $N(t)$  taqsimotini kiritamiz:

$$P_k(t) = P\{N(t) = k\} = P\left\{\sum_{i=1}^k T_i \leq t \leq \sum_{i=1}^{k+1} T_i\right\}.$$

$P(t)$  ehtimoli  $T$  ketma-ketligi haqidagi qoʻshimcha taxminlar asosida hisoblanadi.

Agar tasodifiy oʻzgaruvchilar  $T$  mustaqil boʻlsa va tegishli taqsimot funksiyasi bilan bir xil taqsimlangan boʻlsa, u holda  $\{t_n\}$  ketma-ketligi yangilanish jarayoni deb ataladi.

Hech qanday shubha yoʻqki, risk ehtimollik toifasidir. Shu maʼnoda, uni maʼlum darajadagi yoʻqotishlar ehtimoli sifatida tavsiflash va oʻlchash eng ilmiy jihatdan oqlanadi. Moliyaviy risk statistik maʼlumotlarga asoslangan va juda yuqori aniqlik bilan hisoblanishi mumkin boʻlgan matematik ifodalangan ehtimollikka ega.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi koʻrsatkichlar tahlili koʻpincha ularning bir qismi optimal diapazonda boʻlsa-da, baʼzilar tavsifa etilgan qiymatlarga mos kelmasligini koʻrsatadi. Bu sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi darajasi haqida aniq xulosa shakllantirishni murakkablashtiradi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Shuningdek, ushbu tahlil odatda o'tgan davr ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Shu bois, xulosalar ma'lum darajada "eskirgan" bo'lishi va hozirgi moliyaviy holatni to'la aks ettirmasligi ehtimoli mavjud.

Turli risklarning ta'sirini inobatga olgan holda, sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini prognozli baholash moliya menejerlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu retrospektiv tahlil bilan solishtirganda ancha foydali va amaliy natijalar beradi.

Shu bilan birga, risklarning salbiy ta'siri sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini pasaytiradi. Shuning uchun, iqtisodiy beqarorlik sharoitida sug'urta biznesiga xos xatarlarning ta'sirini hisobga olgan holda moliyaviy barqarorlikni baholash nihoyatda dolzarb muammo hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nurmuxamidova, M., Matqurbanova, A. Sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – №1 (7). – B. 99–110.
2. Sangyong Hana, Gene C. Lai, Chia-Ling Ho. Corporate transparency and reserve management: Evidence from US property-liability insurance companies. // Journal of Banking and Finance. – 2018. – №96.
3. Дубров Л. М., Нагота Б. Л., Хрусталеv Е. Ю. Моделирование рисковvх ситуаций в экономике и бизнесе. Учебное пособие / Под ред. Б. А. Лагоша. – М.: Изд. дом «Академия», 2000. – 312 с.
4. Слепухина Ю. Э. Финансовvе механизмы управления рисками в страховом бизнесе. // Управление в страховой компании. – 2009. – №1. – С. 23–32.
5. Вишняков А. Д. Общая теория рисков. Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2008. – 280 с.
6. Игонина Л. Л. Особенности управления финансовой устойчивостью страховых организаций. // Финансы и кредит. – 2010. – №5. – С. 55–62.
7. Кремер Н. Ш. Теория вероятностей и математическая статистика. – М.: Юнити-Дана, 2000. – 364 с.
8. Бенинг В. Е., Королев В. Ю., Шоргин С. Я. Введение в математическую теорию актуарных расчетов. – М.: Физматлит, 2000. – 448 с.
9. Bowers N. L., Gerber H. U., Hickman J. C. et al. Actuarial Mathematics. – Itasca, Illinois: Society of Actuaries, 1986. – 620 p.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

## 2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**